

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

2-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>B.Sh.Shermuhhammadov, O.R.Raxmatov</b> Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarining mediasavodxonligini rivojlantirish ehtiyojlari va zarurati .....	8
<b>U.R.Radjabov, K.B.Xakimdjano</b> Maktabgacha ta'lim muassasi tarbiyalanuvchilarini harakatli o'yinlar orqali bolalar psixologiyasini va nutqini rivojlantirish uslublari.....	12
<b>X.A.Yulbarsova</b> Loyihaviy ta'lim - bo'lajak sotsiologlarda ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirishning amaliy-texnologik tizimi sifatida .....	16
<b>Sh.A.Mamajonov</b> Oliy ta'limda ekologik tarbiya mexanizmlarini rivojlantirishning maqsad va vazifalari.....	21
<b>B.Q.Qurbonova</b> Ta'lim jarayonida hamkorlikka yo'naltirilgan pedagogika – shaxsga yo'naltirilgan ta'limning zamonaviy texnologiyalari .....	25
<b>B.B.Musayev</b> Aholi salomatligini sog'lomlashtiruvchi dasturining umumiy yo'nalishi .....	31
<b>N.N.Azizov</b> Yuqori malakali kurashchilarning musobaqaoldi texnik-taktik tayyorgarligini boshqarishning ilmiy-metodologik asoslari .....	35
<b>O.Q.Xasanova</b> Bo'lajak nemis tili o'qituvchilarida og'zaki xatolar bilan ishlash ko'nikmasini shakllantirishning pedagogik asoslari .....	42
<b>P.A.Xamrokulov, S.G.Go'furov</b> Физическое воспитание в системе дошкольного образования .....	48
<b>R.N.Nazimov</b> O'qituvchining pedagogik texnikasi .....	52
<b>X.M.Shermatova, G.A.Karaboyeva</b> Zamonaviy ta'lim tizimini rivojlantirishda axborot texnologiyalarining o'rni .....	58
<b>U.Q.Maqsudov, M.O.Yuldasheva</b> Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qish savodxonligini oshirishda o'yin va multimedia vositalaridan foydalanish metodlari .....	62
<b>O.M.Erkaboyev</b> Bolalarning harakat potentsialini maktabgacha ta'lim tashkilotlarida maqsadli oshirish metodologiyasi.....	66
<b>X.M.Ismoilova</b> Hozirgi davrda Farg'ona vodiysi oila qadriyatlariga ta'sir etuvchi destruktiv omillar .....	73
<b>G.B.Karimova</b> O'qitish jarayonida faol va interaktiv ta'limning asosiy usullaridan foydalanish hamda ularni qo'llash shakllari va maqsadlari.....	77
<b>З.Б.Санакуллова</b> Технология выполнения упражнений юными гимнастками с предметами .....	81
<b>A.M.Nurmuhamedjanov</b> Yoshlar musiqiy tafakkurini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari .....	86
<b>O.F.Qambarov</b> Kichik maktab o'quvchilarining jismoniy tayyorgarligini tabaqalashtirish asosida sog'lom turmush tarzini shakllantirish .....	93
<b>I.Qirg'izov</b> Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarining Forobiy qarashlari asosida kasbiy-pedagogik mahoratini rivojlantirish metodikasi .....	96
<b>I.I.Tuyichiyeva</b> O'qituvchi faoliyatida pedagogik va kommunikativ qobiliyatlar .....	100



UO'K: 37.013.2

**O'QITUVCHINING PEDAGOGIK TEXNIKASI****ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПРИЕМЫ УЧИТЕЛЯ****TEACHER'S TEACHING TECHNIQUES****Nazimov Raxmatilla Normuradovich**

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari, Kichik mutaxassislar tayyorlash Markazi,  
Qurollanish va otish sikli katta o'qituvchisi, Qurolli Kuchlar xizmatchisi

**Annototsiya**

*Ushbu maqolada pedagogik texnika tushunchasi, pedagogning shaxsga va jamoaga ta'sir etish texnikasi, pedagogik texnikani shakllantirish yo'llari haqida ma'lumotlar bayon etilgan.*

*Pedagogik mahorat ko'p qirrali va keng ma'noli tushuncha bo'lib, uning shakllanishi va rivojlanishi uzoq vaqt davom etadi. O'qituvchining pedagogik sifatlarini va professional-pedagogik mahoratini shakllantirish va rivojlantirish ichki qarama-qarshiliklarga ega bo'lgan hamda ko'pgina omillarning ta'sirida kechuvchi jarayondir.*

**Аннотация**

*В данной статье раскрывается понятие педагогической техники, описывается информация о приемах воздействия педагога на личность и коллектив, способах формирования педагогических приемов.*

*Педагогическое мастерство - многогранное и широкоосмысленное понятие, формирование и развитие которого займет длительное время. Формирование и развитие педагогических качеств и профессионально-педагогического мастерства учителя - это процесс, имеющий внутренние противоречия и находящийся под влиянием многих факторов.*

**Abstract**

*This article reveals the concept of pedagogical technique, describes information about the methods of influence of a teacher on a person and a team, ways of forming pedagogical techniques.*

*Pedagogical mastery is a multifaceted and broad-minded concept, the formation and development of which will take a long time. The formation and development of pedagogical qualities and professional pedagogical skills of a teacher is a process that has internal contradictions and is influenced by many factors*

**Kalit so'zlar:** *pedagogik texnika, mahorat, pantomimika, emotsiya, pedagog, kiyinish madaniyati, professional, mimika, ritmika, diksiya, nutq, ta'lim-tarbiya.*

**Ключевые слова:** *педагогическая техника, мастерство, пантомима, эмоция, педагог, культура одежды, профессионализм, мимика, ритмика, дикция, речь, воспитание.*

**Key words:** *pedagogical technique, skill, pantomime, emotion, teacher, clothing culture, professionalism, facial expressions, rhythm, diction, speech, education.*

**KIRISH**

Pedagoglik kasbi sharaflı, lekin o'z navbatida uta mas'uliyatli kasb hisoblanadi. Ta'lim-tarbiya jarayoni bilan bog'liq vazifalarni bajaruvchi insonlar jamiyatimizda ko'pchilikni tashkil etadi. Biroq, ularning hammasi ham o'z oldilariga qo'yilgan vazifalarni yetarlicha sifatli va samarali amalga oshirishmaydi. Barchasi ham o'z bo'ysunuvchilari oldida muvaffaqiyat qozona olmaydilar.

Yaxshi pedagog bo'lish uchun pedagogik nazariyani egallashning o'zigina yetarli bo'lmaydi. Chunki pedagogik nazariyada ta'lim-tarbiya jarayoni haqida umumiy qonun-qoidalar, umumlashtirilgan usuli g'oyalar bayon etiladi. Amaliy pedagogik jarayon esa juda xilma-xil shaklga ega bo'lib, unda pedagogik nazariyaga mos kelmaydigan vaziyatlar ko'p uchrab turadi. Bu esa pedagogdan yaxshi amaliy tayyorgarlikni, bilimdonlikni, aktyorlik mahorati va nutq madaniyatini, o'z-o'zini boshqarish qobiliyati va notiqlik mahoratini, yuksak pedagogik mahorat va ijodkorlikni talab etadi. Bular jumlasida pedagogik texnika muhim ahamiyat kasb etadi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI****Pedagogik texnika tushunchasi. SHaxsga va jamoaga ta'sir etish texnikasi.**

«Texnika» (grekcha hunar, sanoat) – usul va vosita elementlarining yig'indisi bo'lib, uning tarkibi – muloqot va munosabatdan iborat.

Pedagogik texnika - o'qituvchining nafaqat ta'lim-tarbiya jarayonida, balki butun kasbiy faoliyatida zarur bo'lgan umumiy pedagogik bilim va malakalari majmuidir.

Pedagogik texnikaning muhim jihatlari — bu asosan, o'qituvchining mahoratini belgilab beruvchi kasbiy ko'nikmalari hisoblanadi, ya'ni uning savodli va ifodali so'zlay olishi, o'z fikr-mulohazasini va bilimni tushunarli tilda ta'sirchan bayon qilishi, his-tuyg'usini jilovlay olishi, o'zining shaxsiy xususiyatlariga xos mimik va pantomimik qobiliyatlarga ega bo'lishi, aniq imo-ishora, ma'noli karash, rag'batlantiruvchi yoki istehzoli tabassum, so'zning cheksiz qudrati orqali o'quvchilar ongiga va tafakkuriga ta'sir o'tkazishi, hozirjavoblik, psixologik bilimlarga ega bo'lishi kabilardir. O'qituvchining pedagogik texnikasi qanday ko'nikma va malakalardan iborat ekanligi, pedagogik texnika o'qituvchining ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiyaviy faoliyatini zamonaviy talablar asosida tashkil qilishida, o'quvchilarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishida qanday rol o'ynaydi kabi muammolar hozirgi kungacha dunyo olimlarining diqqatini o'ziga jalb etib kelmoqda.

O'qituvchini aql bilan o'z xulqini boshqarish, yuz harakati (mimika), qo'l harakati (jest), imo-ishora, pantomimika, o'z emotsiyalarini boshqarish va boshqalar.

Buyuk pedagog A.S.Makarenko aytganidek, «Yuz harakatlarini yaxshi egallamagan, o'z yuziga zarur ma'nolarni bera olmaydigan yoki o'z kayfiyatini boshqara olmaydigan kishi yaxshi tarbiyachi bo'lishi mumkin emas. Pedagog jarayonni tashkil qila bilishi, yura bilishi, hazillasha bilishi, quvnoq va jahldor bo'la olishi lozim. Tarbiyachi o'zini shunday tutishi lozimki, uning har bir harakati tarbiyalasin. U ayni vaqtda nimani istashini va nimani istamasligini har doim bilishi kerak. Agar pedagog buni bilmasa, u qanday qilib tarbiyalashi mumkin?».

Pedagogik texnika ta'lim-tarbiya jarayonini aniq va samarali tashkil etish, zarur natijalarga erishish yo'lidagi usul va vositalar yig'indisidir.

Ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va amalga oshirish murakkab masala bo'lib, uning samarali amalga oshirilishi uchun pedagogdan mutaxassisligi bo'yicha mukammal bilim, malaka va ko'nikmalar, balki chuqur psixologik-pedagogik bilimlarga va keng dunyoqarashga ega bo'lish talab qilinadi. Shuningdek, pedagogik tajribaning va mahoratning oshirib borilishi ham muhim omil hisoblanadi. Bu ishda yosh pedagoglar ko'pincha quyidagi xatolarga yo'l qo'yadilar:

1. Bo'ysunuvchilar, ota-onalar, jamoatchilik vakillari bilan dildan suhbatlasha olmaslik, o'zida bo'lgan ishonchsizlikni bostira olmaslik, jahlini jilovlay olmaslik,.

2. Qaddini to'g'ri tutaolmasligi, o'ziga ishonchsizlik belgilari, boshini egib turishi, qo'l harakatlaridagi najotsizlik.

3. Ovozidagi kamchiliklari, ya'ni monotonlik, ifodali o'qish malakalarining rivojlanmaganligi, nutqning jonsizligi, diksiyasining noaniqligi.

Turli-tuman pedagogik masalalarni hal qilishda o'zining xulqini idora qila olishi, pedagogik texnikaga ega bo'lishi muhim ahamiyatga ega.

Pedagogik texnika turli vaziyatlarda turish holati, ovozini to'g'ri rostlay olishi, vaziyatga qarab ifoda qilish va mazmun bera olishida namoyon bo'ladi. Pedagog uchun o'z hissiyotlari, fikrlari, mimikasi, qo'l ishoralari, kayfiyatini to'g'ri nazorat qilib boshqara olishi, ta'lim-tarbiya vositalaridan ijodiy foydalana bilishi juda muhim ahamiyatga ega.

Tinglovchilarning turli ta'lim-tarbiya vositalariga munosabati bu vositalarning pedagoglar tomonidan qanday qo'llanilishiga bog'liq. Masalan, so'zning qanday aytilishi, qanday ohangda ifoda etilishi (qat'iy, jahl bilan, talabchanlik bilan, quruq, sovuq, hurmat bilan, yumshoq, mehr bilan, mensimasdan va h. k.)ga qarab tinglovchilar reaksiya bildiradilar.

Pedagogning tashqi ko'rinishi, o'zini tutishi, kiyim-boshining ozodaligi, nutq madaniyati va boshqa omillarning hammasi pedagogik texnikaning tarkibiy qismlaridir. Pedagogik jarayonning samaradorligi ulardan mahorat bilan va oqilona foydalana olishga bog'liq bo'ladi.

#### **Pedagogik texnikaning tarkibiy elementlari**

Pedagogik texnika tarkibiy jihatdan juda murakkabdur. Uni shartli ravishda quyidagi ikki guruhga bo'lib ko'rib chiqish mumkin:

Birinchi guruh komponentlari o'qituvchining shaxsiy axloqiy fazilatlarini va xulqi bilan bog'liq bo'lib, ta'lim-tarbiya jarayonida o'z-o'zini boshqarish malakalarida namoyon bo'ladi (refleksiya) va quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- ta'lim-tarbiya jarayonida o'z xatti-harakatlarini boshqarishi, (mimika, pantomimika);
- ta'lim-tarbiya jarayonida o'z hissiyoti va kayfiyatini jilovlay olishi va turli nojo'ya ta'sirlarga berilmaslik;

- mukammal ijtimoiy persektiv qobiliyatlarga (diqqat, kuzatuvchanlik, xayol) egaligi;
- nutq texnikasini (nafas olish, ovozni boshqarish, nutq tempi) bilshi va o'z o'rnida qo'llay olishi.

Pedagogik texnikaning ikkinchi guruh komponentlari o'qituvchining shaxs va jamoaga ta'sir ko'rsatish malakalari bilan bog'liq bo'lib, bu guruh quyidagicha ta'lim-tarbiya jarayonining texnologik tomonini qamrab oladi:

- o'qituvchining konstruktiv, didaktik, tashkilotchilik, kommunikativ qobiliyatlari;
- ma'lum bir reja asosida o'z oldiga qo'yilgan talablarning bajarilishini nazorat qilishi;
- o'quvchilar jamoasida ta'lim-tarbiya bilan bog'liq bo'lgan ijodiy faoliyatni tashkil eta olishi;
- o'quvchilar bilan pedagogik muloqot jarayonini bir muvozanatda saqlay olishi va boshqara olishi.

O'qituvchining o'rganuvchilar oldida o'z harakatlarini boshqarishida aktyorlik san'atiga xos xususiyatlari, ya'ni mimik va pantomimik qobiliyatlari muhim rol o'ynaydi. Aktyor bir obrazni ma'lum bir muddatda tayyorlab, bir yoki bir necha marotaba bir xil ko'rinishda sahnada namoyish etsa, o'qituvchi butun o'quv yili davomida, har bir darsda yangi mavzuni o'tilgan mavzular bilan bog'lab, zamonaviy integratsion usullarda o'quvchilar ongiga etkazish uchun chuqur tayyorgarlik ko'radi, o'rganuvchilar jamoasidagi o'ziga xos pedagogik va psixologik muhitni, har bir o'quvchining shaxsiy xususiyatlarini e'tiborga olib pedagogik faoliyat ko'rsatishga majbur.

Quyida ana shu tarkibiy qismlarning har birini alohida ko'rib chiqamiz.

**Nutq texnikasi** fikrni ifoda etish va tinglovchilarga etkazib berishning asosi bo'lib, quyidagi talablarga rioya qilishni taqozo etadi:

- so'zlarni, jumalarni aniq ifodalash, talaffuz qilish;
- monoton nutqqa yo'l qo'ymaslik;
- jumalarga o'z vaqtida kerakli intonatsiyani berish va h. k.

**Nafas texnikasi** nutq paytida ifoda etilayotgan jumalarning ishonchli va ta'sirli chiqishiga, ma'ruzachi o'zini yaxshi xis qilishiga yordam beradi. Noto'g'ri nafas olish yurak urishining tezlashishiga, yuz qizarishiga, hayajonlanishga olib keladi. Shu sababdan ham mashg'ulot vaqtida nafasni to'g'ri qo'yishni, nutq nafasini mashq qilish, bu malakani rivojlantirish juda muhimdir.

Mushg'ulot o'tish davomida pedagog o'z fikrini tinglovchilarga tushunarli va ta'sirli qilib etkazib berishida tovush (ovoz) muhim ahamiyatga egadir. Material mazmuniga, auditoriyaga qarab tovush tembrini moslashtirib borish zarur. Shuning uchun pedagog har doim o'z tovushiga e'tibor berishi, uni parvarish qilishi, ehtiyotlashi va asrashi lozim.

**Ritmika (nutq tempi)** o'quv materialining yanada tushunarli bo'lishini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Pedagog materialning qiyin qismini sekinroq tempda bayon etishi, keyin tezlashishi mumkin. Tushuncha, qoida, xulosa va boshqalarni bayon etishda tezlikni kamaytirish zarur. Pauza, temp va nutq metodikasi birgalikda intonatsiyani tashkil etadi.

**Diksiya**, ya'ni so'zlarni to'g'ri va aniq talaffuz qilish pedagog uchun professional zarurat bo'lib, tinglovchi tomonidan o'quv materialining to'g'ri qabul qilinishiga, tushunilishiga yordam beradi. Diksiya – bu so'zlar, bo'g'inlar, tovushlar talaffuzining aniqligi. Pedagog o'z diksiyasi ustida tinmay mehnat qilishi, o'quv materialini doimo qaytarib borishi, so'zlarning talaffuzini mashq qilib borishi talab qilinadi.

#### **Pedagogik texnikann namoyon etishda o'qituvchining tashqi ko'rinishi**

Pedagogik texnika haqida so'z yuritganda **pedagogning tashqi qiyofasining** qanchalik ahamiyatga ega ekanligini unutmasligimiz lozim. Pedagogning tashqi qiyofasi estetik jihatdan mazmunli, ifodali bo'lishi lozim. O'z tashqi ko'rinishiga e'tiborsizlik yoki kishining asabiga tegadigan, salbiy munosabat keltirib chiqaradigan darajada haddan tashqari ortiqcha e'tibor qaratish mumkin emas.

Pedagog kiyinish madaniyatiga rioya qilishi zarur. Pedagogning mavsumga, vaqtga, yoshiga, tadbir mazmuniga va joyiga qarab kiyinishi muhim ahamiyatga ega. Kiyim yangi yoki qimmat bo'lishi shart emas, biroq did bilan tanlangan va o'ziga yarashgan, toza va ozoda bo'lishi muhimdir.

Pedagog tashqi qiyofasining estetik mazmunliligi uning so'zlari va yuz ifodasining samimiyligi, o'zini tutishi, harakatlarining me'yorda bo'lishi, yurish-turishi, qo'l harakatlarining to'g'riligi va mazmunliligi bilan mustahkamlanadi.

Ta'lim-tarbiya tadbirining mazmunli va ta'sirli o'tishida **pedagogning o'z qaddini tutishi (osankasi)** muhim ahamiyatga ega. Insonning o'z qaddini qanday tutishiga qarab uning

## PEDAGOGIKA

boshqalarga munosabati, kamtarligi yoki manmanligi, hurmat bilan yoki mensimasdan munosabatda bo'lishi, o'ziga bo'lgan ishonchi yoki ishonchsizligi, bilimining qanchalik chuqurligi yoki sayozligi, o'z ishini sevishi yoki yuzaki qarashi va shu kabi juda ko'p sifatlariga baho berish mumkin. SHu sababli pedagog o'zini auditoriyada qanday tutishni doimo mashq qilishi, tinglovchilarining munosabatini kuzatib, o'rganib va bu munosabatlardan tegishli xulosalar chiqarib, o'z ustida tinmay ishlashi zarur.

**Mimika** (insonning o'z fikrlarini, boshqalarga munosabatini yuz ifodasi yordamida mustahkamlashi) va pantomimika (fikrlarni bayon etish vaqtidagi qo'l, tana harakatlari) pedagog so'zlarining ta'sir kuchini oshiradi yoki susaytiradi. Bunda ham ma'lum bir me'yor bo'ladi, albatta. Bu me'yorni bilish uchun pedagog o'zini doimiy ravishda nazorat qilib borishi, o'ziga nisbatan tanqidiy munosabatda bo'lib, o'z xatolarini bilib va ular ustida ishlab borishi, o'ziga nisbatan tinglovchilarning munosabatini va reaksiyasini o'rganib borishi lozim.

**NATIJALAR VA MUHOKAMA.**

Umuman olganda, pedagogik texnika haqida so'z borar ekan, yuqorida qayd etilgan fikrlarning barchasini birgalikda, bir-biri bilan bog'liq ravishda ko'rib chiqishimiz muhimdir. Pedagogning o'z tinglovchilari bilan munosabatlarida, pedagogik jarayonning ta'sirchanligiga erishishda ikkilamchi narsaning o'zi bo'lmaydi. Pedagogning tinglovchiga ta'sir kuchi uning auditoriyaga kirib kelishi, salomlashishi, tinglovchilarga qarashi, stulni joyidan surib qo'yishi, auditoriyada harakti va boshqalarda nomoyon bo'ladi. SHu sababdan ham pedagog o'zining imkoniyatlariga, bilimiga, tajribasiga to'g'ri, haqqoniy baho bera olishi, o'z pedagogik mahoratini oshirish yo'lida tinmay mehnat qilishi talab etiladi. Pantomimika gavdani rost tutib yura boshlashi, qo'l va oyoqlar harakatlarining bir biriga mosligi, fikrlarini aniq va to'liq bayon qila turib qo'lini, boshqa turli harakatlarda ifodalash o'qituvchining o'z bilimiga, kuchiga ishonishini bildiradi. SHuning uchun o'qituvchining talabalar oldida o'zini tuta bilish holatini tarbiyalashi lozim. (oyoqlari 12-15 sm. kenglikda, bir oyoq sal oldinga surilgan holda turish). O'qituvchining yurishi, qo'l va oyoq orqali imo-ishoralari ortiqcha harakatlardan xoli bo'lishi kerak.

Masalan: auditoriyada orqaga oldinga tez tez yurish, qo'llari bilan turli imo-ishoralari qilish, boshini uyoqbuyoqqa tashlash va hokazo. Bunday holatlar dars davomida o'quvchilarning e'tiborini bo'lib, g'ashini keltiradi va o'rganilayotgan fanga, o'qituvchiga nisbatan hurmatsizlik kayfiyatini uyg'otadi. O'qituvchi mashgulot o'tish jarayonida faqat oldinga yurishi tavsiya qilinadi. U yondan, bu yonga yurish talabalar fikrini bo'ladi. Old tomonga yurayotganida o'qituvchi muhim voqealarni bayon qilishi mumkin, chunki bunda talabalar o'qituvchini butun diqqatlari bilan eshitayotgan bo'ladilar. O'qituvchining pantomimik harakatlari tizimida o'z hissiy holatini boshqara olishi muhim ahamiyatga ega. O'qituvchi o'quvchilar bilan muloqot jarayonida qizg'in kuzatuv ostida bo'ladi. Uning kayfiyatidagi o'zgarishlar pantomimik harakatlarida namoyon bo'ladi. Shu tufayli o'quvchilarga ta'lim-tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish jarayonida (darsda, darsdan tashqari mashg'ulotlar paytida, tarbiyaviy ishlar jarayonida) o'z hissiyatini boshqara olishi, jiddiy bo'lishi, umidbaxshlik, xayrixohlik kayfiyatida bo'la olish qobiliyatlariga ega bo'lishi zarur. Pantomimik harakatlar tizimi o'qituvchida birdaniga paydo bo'ladigan ko'nikma emas. Buning uchun o'qituvchi o'z ustida tinimsiz ishlashi, ilk pedagogik faoliyati davrida kamchiliklarini tezda topib bartaraf eta olishi darkor. CHunki, yillar davomida o'qituvchi o'zining har bir harakatiga moslashib uni odat qilib olishi mumkin. Mukammal pantomimik malakalarga ega bo'lgan o'qituvchi o'z-o'zini nazorat qila oladi, ko'p yillik faoliyati davomida sog'lom asab tizimini o'zida tarbiyalab asabiylashishdan, hissiy va aqliy zo'riqishlardan o'zini saqlay oladi. Pantomimik harakatlarda o'z hissiy holatini nazorat qilishda o'qituvchi quyidagi holatlarga e'tibor berishi maqsadga muvofiqdir: - sport bilan muntazam shug'ullanish; - yoshlar psixologiyasiga oid bilimlarni doimiy o'rganib borish; - o'quvchilarga nisbatan xayrixohlik va optimizmga ega bo'lish; - o'z harakatini nazorat qilishi (muskul zo'riqishini, ko'l, oyoq va bosh harakatini, nutq tempini bir maromda saqlashda nafas olishini tartibga solish); - madaniy hordiqni to'g'ri uyushtirishi (dam olishi, o'z sog'ligiga doimiy e'tibor, lirika, musiqa, yumoristik hajviyalarni sevib o'qiy olish); - o'z-o'ziga tanqidiy ta'sir ko'rsatish. O'qitish samaradorligini oshirish va ijobiy tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish uchun o'qituvchining harakatlarida aktyorlik va rejissyorlik malakalari ham mujassamlashgan bo'lishi lozim. Xususan, gumanitar fanlar o'qituvchilari aktyorlik qobiliyatiga ega bo'lishlari lozim. Ma'lum mavzular, obrazlar, tarixiy qahramonlar haqida so'zlaganda aktyorlik, rejissyorlik malakalari zarur bo'ladi. Ular o'qituvchiga o'quvchilarning his-tuyg'ulariga ta'sir ko'rsatishda, mavzu qahramonlariga nisbatan hissiy qadriyatli



munosabatda bo'lish tajribasini o'zlashtirishiga yordamlashadi. Pedagogik texnika malakalari o'qituvchining maxsus fanlar bo'yicha bilimlarni egallash, pedagogik mahoratini takomillashtirishga intilish, o'z kasbiga qiziqish, burch hamda mas'uliyatni his qilish asosida oshiriladi. SHu bilan birga ular yoshlarni o'qitish, tarbiyalash, targibot qilish, mustaqil bilim olish ishlariga yordam beradi. O'qituvchining tashqi ko'rinishida nutq texnikasi, his-tuyg'ularini boshqara olish, mimik va pantomimik malakalar bir qolipda mukammal olib borilganda ko'zlangan maqsadga, albatta, erishiladi. Bunda so'z, gap ohangi, qarash, imo-ishoralar, kutilmagan pedagogik vaziyatlarda uddaburonlik, osoyishtalik bilan ziddiyatdan chiqish, voqelikni oldindan ko'ra olish va adolatli tahlil qilishga asoslanish maqsadga muvofiqdir. Bu xususiyatlar o'qituvchining shaxsiy, individual psixik, fiziologik fazilatlarini asosida tarkib topadi. Pantomimik harakatlarni boshqarishda ham o'qituvchining individual pedagogik texnikasi, yoshi, jinsi, mijozi, fe'l-atvori, salomatligi va anatomik-fiziologik xususiyatlari muhim ahamiyatga ega.

### **Pedagogik texnikani shakllantirish yo'llari.**

O'qituvchining pedagogik mahorati yuqorida qayd etilganidek, murakkab tarkibiy tuzilishga ega, uning shakllanishi va rivojlanishi uzoq davom etuvchi hamda ko'p mehnat talab qiluvchi jarayon sanaladi. Shunday ekan, bu jarayonning samarali va muvaffaqiyatli kechishi uchun amalga oshirilishi lozim bo'lgan tadbirlar ham xilma-xil bo'lib, ulardan bir nechtasini ko'rsatib o'tamiz:

1. Aniq belgilangan tizim asosida o'qituvchining, psixologik-pedagogik bilimlarini rivojlantirib borish.
2. Ta'lim-tarbiya jarayonini, kundalik turmushni qonunlar va talablariga muvofiq tashkil etish.
3. O'qituvchining psixologik-pedagogik bilimlarini takomillashtirish, umumiy va pedagogik madaniyati saviyasini oshirish maqsadida o'z ustida mustaqil ishlashini tashkil qilish.
4. Ma'naviy-ma'rifiy, axloqiy mazmunga ega tadbirlarni doimiy ravishda va rejali asosda tashkil etish.
5. Ilg'or pedagogik tajribani o'rganish va ommalashtirish.
6. O'qituvchilarni pedagogik jarayonga keng jalb qilish.
7. O'qituvchilarni ilmiy-tadqiqot ishlariga jalb qilish va boshqalar.

Hozirgi kun talablari nuqtai nazaridan, o'qituvchiga qo'yilayotgan javobgarlik hissi kengayib murakkablashib bormoqda. Mamlakatimizda ta'lim-tarbiya sohasida olib borilayotgan islohotlarning yuksak natijalari bevosita o'qituvchining qizg'in mehnati samarasiga bog'liq. Vatanimizning porloq kelajagi uchun yosh avlodni har tomonlama etuk, komil inson qilib voyaga etkazishda o'qituvchining kasbiy bilimi, faoliyat texnikasi mutlaqo yangilanib, hozirgi zamon talablariga javob bera oladigan darajada bo'lishi kerak. "Ta'lim to'grisida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" talablariga muvofiq o'qituvchi o'zining ta'lim-tarbiyaviy faoliyatida milliy-madaniy va umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligiga doimo e'tibor berib kelishi lozim. O'qituvchining pedagogik texnikasi ham vatanparvarlikka, xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlashga, o'qituvchilarning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishiga asoslangan bo'lishi shart

Pedagogik texnikani puxta egallagan o'qituvchi kasbiy mahorat qirralarini egallagan bo'ladi.

Pedagogik mahorat o'qituvchining o'z mutaxassisligini, psixologiya va pedagogika fanini, didaktika prinsiplarini va metodlarini, o'z o'quv fani metodikasini chuqur bilishga, boshqa fanlardan tushunchaga, keng dunyoqarashga ega bo'lishiga asoslanadi.

### **O'qituvchining ma'naviy-axloqiy fazilatlariga quyidagilar kiradi:**

1. O'qituvchining ruhan tetik, axloqan pok bo'lishi.
2. Mehnatda va shaxsiy hayotda doimo ibrat bo'lishi.
3. Muomala madaniyatiga ega bo'lishi.
4. Qalbi va vijdoni pok bo'lishi.
5. Jamiyatda va hayotda turli mish-mishlarga berilmaslik.
6. To'g'ri so'z va adolatli bo'lishi.
7. O'qituvchini o'z o'rnida ko'rishi va unga mehri bo'lishi.
8. G'iybatlarga, yolg'onlarga berilmasligi.
9. Zamon bilan hamnafas qadam bosishi.
10. Hissiyotlarga berilmasligi va sabr-toqatli bo'lishi.
11. Mehribon va dilkash bo'lishi.
12. Xushfe'l va shirinsuxan bo'lishi kerak.
13. O'qituvchida o'qishga va bilim olishga ehtiyoj tug'dira olishi lozim.
14. O'qituvchiga va bilim olishiga etarli sharoit yaratib berish kerak.

## PEDAGOGIKA

15. O'quvchida o'qishga mas'uliyat hissini uyg'ota olish.
16. Yangi pedagogik texnologiyalardan unumli foydalana olish.
17. O'z ishida diagnostik tahlil bilan ishlashi.

**XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, pedagogik mahorat ko'p qirrali va keng ma'noli tushuncha bo'lib, uning shakllanishi va rivojlanishi uzoq vaqt davom etadi. O'qituvchining pedagogik sifatlarini va professional-pedagogik mahoratini shakllantirish va rivojlantirish ichki qarama-qarshiliklarga ega bo'lgan hamda ko'pgina omillarning ta'sirida kechuvchi jarayondir. Bu jarayon o'z-o'zidan kechmaydi, balki boshqariladigan bo'lib, birinchi navbatda har bir o'qituvchining bilimi saviyasi, dunyoqarashi, ma'naviy, aqliy, estetik va jismoniy rivojlanishi darajasiga bog'liqdir.

O'qituvchining professional sifatlarining, pedagogik mahoratining shakllanishiga jamiyatdagi turmush tarzi, kundalik faoliyat, jamoadagi ma'naviy-ruhiy muhit va boshqa omillar ham o'z ta'sirini ko'rsatadi.

O'qituvchining o'z pedagogik mahoratini tinimsiz takomillashtirib borishi uning professional darajasini rivojlantirishga, oldiga qo'yilgan ta'lim-tarbiya vazifalarini samarali va sifatli bajarishiga zamin bo'lib xizmat qiladi.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Mustaqillik. Izohli ilmiy-ommabop lug'at. – T.: SHarq, 2008. - 320 b.
2. Saidov U. Boshqaruv va notiqlik san'ati. // O'quv qo'llanma. – T.: G'afur G'ulom, 2011. –176 b.
3. Satib-Aldiev A.A. Etiket to'g'risida tushuncha: kiyinish va ovqatlanish etiketi.// Ommabop qo'llanma. – Toshkent OUQBYU, 2014. – 32 b.
4. Satib-Aldiev A. O'qituvchining pedagogik madaniyati.// O'quv qo'llanma. – Toshkent OUQBYU, 2013. – 38 b.
5. Satib-Aldiev A. Pedagogik mahorat. // O'quv qo'llanma. – T.: TOUQBYU, 2008. - 38 b.
6. Satib-Aldiev A. Pedagogik mahorat asoslari. // O'quv qo'llanma: – T.:O'R MV Uslubiy markazi. – 86 b.
7. Сафаров Р. Правила хорошего тона. – Т.: Правда востока, 1993. – 128 стр.
8. Энциклопедия этикета. – Москва: Рипол классика, 2001. – 640 стр.
9. Qudratov T. Nutq madaniyati asoslari. //O'quv qo'llanma. – T.: O'qituvchi, 1993. – 160 b.
10. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. // O'quv qo'llanma: T.: «IQTISOD-MOLIY A» 2010. – 125 b.